

UDK 330.1 (575)

DAVLATNING SOLIQ SIYOSATI – MAMLAKATDA YALPI ICHKI MAHSULOT VA UNING TARKIBIY QISMI BO'LGAN QO'SHIMCHA MAHSULOT HAJMI OSHISHINING BOSH OMILI**Ablaqulov Kamoliddin Bahridnovich***TATU Qarshi filiali o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada qo'shimcha mahsulotni namoyon bo'lish shakllaridan birini va davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbaini tashkil etuvchi soliq haqida, O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiy islohotlar va davlat iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri ekanligi, mamlakatdagi soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi, soliq yukining yanada kamaytirilishi hamda korxonalarda qo'llanilgan soliq imtiyozlari haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Qo'shimcha mahsulot, soliq, soliq tizimi, byudjet, soliq yuki, soliq imtiyozlari, qo'shilgan qiymat solig'i, foyda solig'i, yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq, suv solig'i.*

Abstract: *This article discusses one of the forms of additional product and tax, which is the main source of revenue of the state budget, improving the budget and tax system in Uzbekistan is one of the central issues of economic reform and public economic policy, simplification of the tax system and unification, further reduction of the tax burden and tax incentives applied to enterprises.*

Key words: *Additional product, tax, tax system, budget, tax burden, tax benefits, value added tax, profit tax, land tax, personal income tax, social tax, turnover tax, water tax.*

Qo'shimcha mahsulotni namoyon bo'lish shakllaridan biri – bu soliqlardir, ular davlat byudjeti daromadlar qismining asosiy manbai bo'lib hisoblanadi. Respublikamiz byudjet tizimining o'ziga xosligi shundaki, davlat byudjetining asosiy qismi, ya'ni 85% faqatgina soliq va shu kabi boshqa majburiy to'lovlar orqali to'ldiriladi. Chunki, respublikamiz byudjeti boshqa mamlakatlarga o'xshab turli xildagi tabiiy boyliklar, jumladan neft va tabiiy gaz kabilar hisobiga to'ldirilmaydi, mamlakatimizda bunday tabiiy boyliklar oddiy aholi ehtiyojini qondirishga yetmaydi. Shu sababli respublika byudjetining asosiy qismi soliqlar orqali to'ldiriladi va aynan ular hisobiga davlat miqyosidagi investitsion loyihalar amalga oshiriladi, aholi ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanadi, mamlakat mudofaasi va xavfsizligi ta'minlanadi, ta'lim, madaniyat, tibbiyot, boshqaruv, sud, ijro va shu kabi bir qator sohalar rivojlantiriladi [1].

O'zbekistonda byudjet va soliq tizimini takomillashtirish iqtisodiy islohotlar va davlat iqtisodiy siyosatining markaziy masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, izchil soliq-budjet siyosatining amalga oshirilishi, soliq yukini kamaytirish bilan bog'liq chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi, soliq to'lovchilarda ishlab chiqarishni kengaytirishga sharoit yaratilishi, ishlab topilgan va ularning o'zlarida qoldirilayotgan mablag'larning reinvestitsiya qilinishi oqibatida qo'shimcha soliq obyektining paydo bo'lishi hisobiga nafaqat budjetdagi yo'qotishlar o'rining qoplanishi, balki soliq to'lovchilarning qo'shimcha daromadlarga ega bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatining oshishiga olib keladi.

Mamlakatdagi soliq tizimining soddalashtirilishi va unifikatsiya qilinishi, soliq yukining yanada kamaytirilishi quyidagi bir qator vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga moddiy zamin yaratadi:

- soliq yukining kamaytirilishi orqali soliq imtiyozlarining kengaytirilishi xorijiy investitsiyalarning jalb qilinishi va iqtisodiyotni modernizatsiyalashni kengaytirishga imkon yaratadi;

- soliq tizimini soddalashtirish va soliq stavkalarini pasaytirish o'z navbatida xususiy mulkchilik tarmog'ini kengaytiradi, biznes uchun qulay muhit yaratadi va uning kafolatlarini mustahkamlaydi;

- soliq yukini kamaytirish hisobiga soliq to'lovchilar ixtiyorida qoladigan mablag'lar reinvestitsiya qilinishiga hamda ishchi xodimlarning ish haqiga yo'naltirilishiga tavsiya qilinishi, jismoniy shaxslar daromadlaridan olinadigan soliq stavkasining oraliq chegaralari bo'yicha pasaytirilishi, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha imtiyozlarining kengaytirilishi pirovardida aholi daromadlarining oshishiga hamda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga olib keladi;

- soliq yukini kamaytirish natijasida soliq to'lovchilar ixtiyorida qolgan mablag'lardan samarali foydalanish aholi daromadi va bandlik darajasini oshirish orqali xarid talabining jadal o'sishini ta'minlaydi;

- soliq sohasidagi islohotlarni chuqurlashtirish va soliq yukini kamaytirish eksportni har tomonlama rag'batlantirish va valyuta zahiralarini tejash, ulardan oqilona va samarali foydalanishni ham ta'minlaydi;

- soliq tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirish uy-joy kommunal xo'jaligidagi islohotlarni chuqurlashtirish hamda energiya resurslaridan foydalanishda tejamkorlikni ta'minlash bilan bog'liq chora-tadbirlarning amalga oshirilishiga ham ta'sir ko'rsatadi [2].

Iqtisodiyotga soliq yukining pasaytirilishida soliqlar sonining kamaytirilishi, soliq imtiyozlarining kengaytirilishi bilan birga soliq stavkalarining pasaytirilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Soliq stavkalarining pasaytirilishi ishlab chiqarish hajmi va daromadlarning ortishi natijasida soliq bazasining kengayishiga, davlat byudjeti xarajatlarini taqchillikka yo'l qo'ymasdan moliyalashtirishga zamin yaratadi.

Bugungi kunda "soliq yukini kamaytirish va soliqqa tortish tizimini soddalashtirish yo'lini davom ettirish, soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish va rag'batlantirishning tegishli choralarini kengaytirish" dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [3].

2021-yilda 53 mingdan ortiq korxonaga 34 trln so'mlik soliq imtiyozlari qo'llangan, bu o'tgan yilgi jami soliq tushumlarining 26,7 %, yalpi ichki mahsulotning 4,6 % ga teng. 2021-yil davomida 53561 ta xo'jalik yurituvchi sub'yektga 7 ta soliq turi bo'yicha 70644 ta holatda jami 34,9 trln so'mlik imtiyoz qo'llangan (1-jadval). Imtiyozlar summasining asosiy qismi qo'shilgan qiymat solig'iga to'g'ri keladi [4].

1-jadval

2021-yilda korxonalarda qo'llanilgan soliq imtiyozlari

Soliq turlari	Imtiyoz olgan korxonalar soni	To'lanmagan soliqlar, so'mda
---------------	-------------------------------	------------------------------

Qo‘shilgan qiymat solig‘i	10123	30 trln 450 mlrd
Yer solig‘i	9555	1 trln 375 mlrd
Foyda solig‘i	2494	1 trln 117 mlrd
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	31224	747 mlrd 314 mln
Ijtimoiy soliq	9000	266 mlrd 622 mln
Aylanmadan olinadigan soliq	8224	111 mlrd 64 mln
Suv solig‘i	25	24 mlrd 321 mln

Global soliq xarajatlari ma’lumotlar bazasi (GTED) ma’lumotlariga ko‘ra, soliq imtiyozlari (yuridik shaxslar va uy xo‘jaliklari uchun yengilliklar, ayrim tovarlar va xizmatlar uchun stavkalarining maqsadli pasaytirilishi) natijasida undirilmagan mablag‘lar miqdori global miqyosda o‘zgarib qolmoqda: so‘nggi 30 yil ichida dunyo miqyosida undirilmagan soliqlar qiymati global yalpi ichki mahsulotning 3,3 % dan 4,9 % gacha bo‘lgan. Bundan, O‘zbekistondagi soliq imtiyozlaridan natijasida undirilmagan mablag‘lar me‘yori global miqyosga mosligini ko‘rish mumkin [5].

O‘zbekistonda ishlab chiqarishning yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash, tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish, aholining real daromadlarini va iste‘mol talablarini oshirishda muntazam ravishda soliq yukini kamaytirish choralarining keng qo‘llanilishi o‘z natijalarini bermoqda. Ayniqsa, soliqlar va to‘lovlarni bir xillashtirishga katta e‘tibor qaratilishi soliqqa tortish mexanizmlarining oshkoraligiga, soliqlarni hisoblash va to‘lashga oid korxonalar faoliyatini soddalashtirishga, shuningdek, soliq majburiyatlarining bajarilishini samarali nazorat qilishga yordam beradi. Ayni paytda bu hol respublikada qo‘llaniladigan soliq tizimini xalqaro me‘yorlar va andozalarga muvofiqlashtirish zarurati bilan izohlanadi [6].

Aytish mumkinki, davlat soliqlar orqali mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bevosita ta‘sir o‘tkazadi, davlatning soliq siyosati mamlakatda yalpi ichki mahsulot va uning tarkibiy qismi bo‘lgan qo‘shimcha mahsulot hajmi oshishining bosh omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Shodmonov va M.Raxmatov “Iqtisodiyot nazariyasi fanining ikki chigal tuguni va uning yechimi” Toshkent. “Iqtisodiyot” nashriyoti 2019-yil
2. Sh.Shodmonov “Iqtisodiyot nazariyasi” Darslik. Toshkent 2020-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi, PF-4947-sonli Farmoni. 1-ilova 3.1-band.
4. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. 2021-yil
5. <https://kun.uz/uz/news/2022/02/09/soliq-imtiyozlari-ochiqlanayotgan-malumotlar-yetarlimi>
6. N.B.Ashurova va Sh.Atamuradov “Korxonalar iqtisodiyoti va menejmenti” O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2019-yil